



Lola IKROMOVA,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: l.b.ikromova@buxdu.uz

BuxDU dotsenti PhD N.Kuldashova taqrizi asosida

KOGNITIV LINGVISTIKANING MAQSAD VA VAZIFALARI

Аннотация

Mazkur maqolada kognitiv lingvistika haqida so'z boradi. Ushbu atamani kelib chiqishi rivojlanish davri va qaysi olimlar tomonidan yaratilgani haqida tshunchalar berilgan. Bundan tashqari, ushbu mavzu yuzasidan qaysi adabiyotlardan foydalanilganlik, iqtibosliklar va olimlar fikri misol sifatida keltirilgan. Aytish joizki, kognitiv sohaga bo'lgan e'tibor yigirmanchi asrning o'rtalaridan boshlab Keskin oshgani va til qobiliyati umumiy kognitiv mexanizmlarning tafakkurini, xotirasini, kognitiv jarayonlarini va hakazolarni o'rganishi mumkin. Maqolada, kognitiv lingvistikaning maqsadi ya'ni insonning til bilimi qanday tuzilganini tushuntiruvchi yagona modelni yaratishdan iboratligi haqida ma'lumotlar berib o'tildi.

Kalit so'zlar: Kognitiv lingvistika, tilshunoslik, kognitiv psixologiya, kognitiv semantika, ilm, bilim, ong, tushuncha, axborotlar almashinuvi, talqin, e'tiqod, kognitiv yondashuvlar.

КОГНИТИВНАЯ ЛИНГВИСТИКА ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ

Аннотация

Эта статья о когнитивной лингвистике. Есть намеки на период развития этого термина и на то, какие учёные его создали. Кроме того, в качестве примеров приводится использованная по данной теме литература, цитаты и мнения ученых. Стоит сказать, что внимание к когнитивной сфере резко возросло с середины XX века, и языковые способности позволяют изучать мышление, память, когнитивные процессы и хаказо общих когнитивных механизмов. В статье предоставлена информация о цели когнитивной лингвистики, то есть создании единой модели, объясняющей, как структурировано знание человеческого языка.

Ключевые слова: Когнитивная лингвистика, лингвистика, когнитивная психология, когнитивная семантика, наука, знание, сознание, понимание, обмен информацией, интерпретация, убеждения, когнитивные подходы.

COGNITIVE LINGUISTICS GOALS AND OBJECTIVES

Annotation

This article is about cognitive linguistics. There are hints about the period in which the term was developed and which scientists created it. In addition, the literature used on this topic, quotes and opinions of scientists are given as examples. It is worth saying that attention to the cognitive field has increased sharply since the mid-twentieth century, and language abilities make it possible to study thinking, memory, cognitive processes and general cognitive mechanisms. The article provides information about the goal of cognitive linguistics, that is, the creation of a unified model that explains how knowledge of human language is structured.

Key words: Cognitive linguistics, linguistics, cognitive psychology, cognitive semantics, science, knowledge, consciousness, understanding, information exchange, interpretation, beliefs, cognitive approaches.

Kirish. Inson jamiyatda yashar ekan albatta tilning o'rni beqiyos. Chunki til fikr va hissiyotlarni ifoda qilishda muhim rol o'ynaydi. Til hamma faoliyatda qo'llaniladi. Masalan ko'chada, uyda, ishda va albatta fan doirasida ham o'z fikr- mulohazalarimizni bildirish uchun, axborotlar berish uchun foydalanamiz. Bu haqida Sh.Safarov o'zining "Kognitiv tilshunoslik" risolasida tilga nisbatan " Til tizimining vazifalari va inson lisoniy qobiliyatini namoyon etuvchi omillarning amaldagi harakati haqida ko'plab savollar tug'ilishi tabiiy. Zero, inson dunyoga kelar ekan, Ollohning bebaho in'omi- til uning xizmatida bo'ladi. Bu in'om mo'jizakor va betakroridir" deya shunday ta'rif beradi[1].

Til qachon va qanday paydo bo'lgan degan savol barchaga qiziq bo'lsa kerak. Bu haqida olimlarning fikri turlicha. Antik faylasuflar tilning kelib chiqishini bir-biriga qarama - qarshi bo'lgan ikki xil nazariya bilan tushuntirishga harakat qilganlar. Ba'zi faylasuflar til tabiiy yo'l bilan paydo bo'lgan, ya'ni so'z va predmetlar o'rtasida to'g'ridan - to'g'ri tabiiy bog'lanish bo'lganligi uchun kishilar predmet va narsalarni tabiiy holda bilib olishgan, deb isbotlamoqchi bo'lganlar. Ba'zi faylasuflar esa til kishilarning bir - biri bilan

o'zaro kelishishi natijasida vujudga kelgan deb hisoblaganlar [2].

Shunday qilib, til bu xalqning og'zaki xazinasidir. O'zaro fikr almashish, axborotlar yig'ish va uzatish, voqea-hodisalarni tushuntirib berish kabi vazifalarni bajarish qobiliyatini namoyon etadi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Oxirgi yillar davomida kognitiv ilmnig shiddat bilan rivojlanishi tilshunoslikda kognitiv yondashuvga olib kelmoqda. Tilshunoslik doirasida kognitiv tadqiqotlar soni keskin oshib bormoqda. Maqsad - tilga oid yangidan yangi fikrlar, qarashlar va tilshunoslikning asosiy muammolariga yangicha yondashuvni talab qiladi. Kognitiv tilshunoslik asoschilari N.Xomskiy, J.Lakoff, L.Talmi, I.Fillmor va boshqalar kabi olimlar hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik insonning lingvistik xususiyatlarini va nutqini tushunishga imkon beradigan fandr.

Axborotlar nafaqat uning hayotining xulq-atvor va kommunikativ jihatlariga, balki ichki psixologik jarayonlari va holatlariga ham ta'sir qiladi. Jumladan, tilshunos olim Sh. Safarov "Kognitiv tilshunoslikning shakllanishi aynan "ruhoniylar hamkorligi natijasidir. Lisoniy qobiliyat barcha

sohalar e'tiborini tortishi aniq. Tarixan shunday bo'lib kelgan ham"[1].

Aytish joizki, kognitiv sohaga bo'lgan e'tibor yigirmanchi asrning o'rtalaridan boshlab keskin oshdi. Kognitiv psixologiyada esa ba'zi ruhiy jarayonlarni o'lchash mumkin bo'lsa-da, shaxsning muammolarni qanday idrok etishi, eslashi, o'ylashi yoki hal qilishini belgilaydigan narsani yetarli darajada aniqlash deyarli mumkin emas edi. Kognitiv psixologiya odamlarning qanday idrok etishi, tushunishi, baholashi va o'ylashi bilan bog'liq. Kognitiv psixologlar "Ong biz sezgilar orqali ma'lumot oladigan ma'lumotni qayta ishlovchi hisoblanadi, biz bu ma'lumotni va uning o'zimizga munosabatini tushunishga harakat qilamiz va biz ma'lumotlarni boshqalarga uzatamiz" deya ta'kidlashadi.

Shunday qilib, N. Xomskiyning fikriga ko'ra, "Idroksiz psixik jarayonlarni to'liq tushunish va amalga oshirish mumkin emas. Idrok tuyg'u va madaniy muhitga ta'sir qiladi. Bir kishi uchun bir yo'l bo'lib ko'rinadigan narsa boshqasiga juda farq qiladi"[3].

Bundan tashqari yana bir maqolada N.Xomskiyning "Kognitiv inqilob ong-miya holatlari va ular inson xulq-atvorini qanday belgilashini, ayniqsa kognitiv holatlar: Bilim, tushuncha, talqin e'tiqod va hokazo holatlarni bildiradi" deya yoziladi[4].

- Tadqiqot metodologiyasi. Kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi va har tomonlama tadqiq qilinishi natijasida ko'plab sohalararo fanlar, yo'nalishlar shakllandi. Bu fan orqali dunyoni idrok etish, turkumlash, tasniflash va tushunish jarayonlari qanday amalga oshirilishini, bilimlar qanday to'planishini, qanday tizimlar turli xil faoliyat turlarini axborot bilan ta'minlashi tushuniladi.

Kognitiv tilshunoslik atamasi bu inglizchada "cognitive-bilishga oid" degan ma'noni anglatadi. Yana bir "cognize -bilmoq, anglamoq, tushunmoq" ma'nolari ham mavjud. Bunda til va ong o'rtasidagi munosabatlar muammolarini dunyoni konseptuallashtirish va turkumlashtirishda tilning rolini, kognitiv jarayonlarda va inson tajribasini umumlashtirishda insonning individual kognitiv qobiliyatlari bilan bog'liqligini, til va ularning o'zaro ta'siri shakllarini o'rganadigan tilshunoslik yo'nalishidir[5].

Kognitiv tilshunoslik zamonaviy, jadal rivojlanayotgan ilmiy tadqiqot sohasidir. U dastlab amerikalik tilshunos olimlarni ishlari yuzasida olib borildi, ammo keyinchalik chet elga tarqaldi va hozirda butun dunyo bo'ylab bu sohada olimlar faoliyat yuritmoqda.

Bu soha bir fan doirasiga to'g'ri kelmaydi, balki bir necha fanlarga bog'langan bo'lib, bu zamonaviy gumanitar fanlarning o'ziga xos xususiyatidir (qarang: psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, biolingvistika, yuridik tilshunoslik, hisoblash texnikasi kabi "chegara" sohalar). tilshunoslik, siyosiy tilshunoslik, lingvistik geografiya, lingvistik antropologiya va boshqalar).

Kognitiv tilshunoslikning rasmiy "tug'ilishi" 1989 yil bahorida Duysburgda (Germaniya) bo'lib o'tgan Xalqaro lingvistik simpoziumga to'g'ri keladi va bir vaqtning o'zida Kognitiv tilshunoslik bo'yicha birinchi xalqaro konferentsiyaga aylandi. Simpozium ishtirokchilari Xalqaro kognitiv lingvistik assotsiatsiyasini tuzdilar, "Kognitiv lingvistik" jurnaliga asos soldilar va "Kognitiv lingvistik tadqiqotlari" qator kitoblarini yaratdilar, keyinchalik ular ushbu sohaning taniqli vakillarining asarlarini va eng dolzarb mavzular bo'yicha maqolalar to'plamini nashr etdilar. [6]

- Tahlil va natijalar. Kognitiv lingvistika 70 yillarning o'rtalarida fan olamida keng yoyildi. Kognitiv lingvistikaning vatani hisoblangan AQShda uni ko'proq kognitiv grammatika, Rossiyada esa kognitiv semantika deb atalishini ko'rishimiz mumkin. Kognitiv tilshunoslikning maqsadi insonning bilish faoliyatini aks ettirishi, ma'lumotni idrok etishi, ifodalash va ishlab chiqarish tizimlarining o'zaro

ta'siridir. Til birliklarining ma'nosi kognitiv tuzilmalarni o'z ichiga oladi, bu esa o'zaro bog'liq so'zlarning shakllanishida namoyon bo'ladi. Masalan: Tabiiyki, bolalar o'zlarining birinchi so'zlarini tanish narsalarga ma'no qo'yish orqali oladilar. Misol uchun, "mushuk" so'zi bola "mushuk" va mushuk bo'lgan ob'ektni bog'lamoq uchun, bola uchun hech qanday ma'noga ega emas. Tanib olish (idrok) sodir bo'lganda, bola asta-sekin ko'proq lug'at so'zlariga ega bo'ladi, shuningdek ularni ishlatish uchun aqliy o'tkirlilik.

Har bir inson bolasi tilni egallashning biologik qobiliyatiga ega. Rivojlanish jihatidan normal bolalar o'z ona tili grammatikasini boshqalarning yordamisiz tuzadilar. Biroq, bolaning amalga oshirishi uchun ikkita shart mavjud: "(1) u tilda kodlangan jismoniy va ijtimoiy hodisalarni tan olishi kerak va (2) lingvistik ma'lumotlarni qayta ishlash, tartibga solish va saqlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak". Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, bola bo'g'inlarni ichki qayta ishlash uchun uning ma'nosini ham, shaklini ham tushunishi kerak [3].

Til qobiliyati umumiy kognitiv mexanizmlarning namoyon bo'lishi hisoblanadi. Shuning uchun ham til orqali insonni - uning tafakkurini, xotirasini, kognitiv jarayonlarini va hokazolarni o'rganish mumkin. Uning maqsadi insonning til bilimi qanday tuzilganligini va nutqni yaratish va idrok etish jarayonlarida undan qanday foydalanishini tushuntiruvchi yagona modelni yaratishdir.

Barcha jumlar sintaktik birliklardan tuzilgan. Xomskiyning ta'kidlashicha, ona tilida so'zlashuvchilar tug'ma tilni rivojlantirish qobiliyatiga ega, chunki ular kognitiv til hissi bilan tug'iladi. "Juda aniq ma'noda, har qanday tilda so'zlashuvchi o'z ona tilining grammatikasini biladi deyish mumkin"[3].

Hozirgi davrda kognitiv olimlarning g'oyalarga ko'ra, tilning umumiy nazariyasining asosiy vazifasi bu tabiiy tilni qayta ishlash va uni tushunish modelini qurishdan iborat.

Tilshunoslik nazariyasi nafaqat til nima degan savolga, balki inson til orqali nimaga erishadi, degan savolga javob berishi kerak. Shu munosabat bilan kognitiv tilshunoslikning maqsadlari quyidagilarni tushunchalarga asoslanadi.

1. Dunyoni bilish va anglash jarayonlarida tilning roli.
2. Dunyo haqidagi axborotni qabul qilish, qayta ishlash va uzatish jarayonlarida til bilimlari.
3. Bilimlarni konseptuallashtirish va turkumlashtirish jarayonlari, madaniy konstantlarni lingvistik turkumlash va konseptuallashtirish vositalari va usullarining tavsifi.
4. O'rganadigan universal tushunchalar tizimining tavsifi kontseptsiya sohasi va uni bo'linishning asosiy rubrikatorlari hisoblanadi.
5. Dunyoning lingvistik rasmi muammolari.

Kognitiv tilshunoslikning tadqiqot predmeti ham butun kontseptual tizimni qurish uchun eng zarur bo'lgan tushunchalar va birinchi navbatda kontseptual makonning o'zini tashkil etuvchi va uning bo'linishining asosiy sarlavhalari sifatida harakat qiladigan tushunchalardir [7]

Kognitiv tilshunoslik til tahlilini nutq tahlili, tegishli leksemalardan foydalanishning turli kontekstlari, matnlarda qayd etilgan tushuncha haqidagi mulohazalar, turli lug'atlar va ma'lumotnomalarda berilgan ta'riflar, frazeologizmlar, maqollar, matallar, aforizmlar tahlili bilan to'ldiradi. qaysi tushuncha ifodalanadi.

Tildan foydalanish murakkab kognitiv hodisa bo'lib, odamni hayvonlardan ajratib turadigan sohalardan biridir. Odamlar so'zlarni tez sur'atlarda o'rganadilar, o'rtacha odam o'rta maktabni tugatgan paytda taxminan 45 000 so'zni o'rganadi

Kognitiv psixologiya odamlarning qanday fikrlashi, eslashi, yaratishi va gapirishini o'rganadi. Kognitiv rivojlanish nazariyasi ko'proq bilimga ega bo'lishi va mavjud bo'lgan ma'lumotlar katalogiga qo'shilishi bilan doimo o'zgarib

turadi. Tilshunos Noam Xomskiy asos solgan psixolingvistika sohasi ushbu tadqiqotga asoslanadi. Xomskiyning g'oyalari tilni o'zlashtirish va rivojlantirishga qarashning standartini belgilab berdi [3].

Kognitiv tilshunoslikning bugungi kunda paydo bo'lgan kamida quyidagi yo'nalishlari haqida gapirishimiz mumkin.

Kulturologik – madaniyat elementlari sifatidagi tushunchalarni turli fanlar ma'lumotlari asosida o'rganish.

Lingvokulturologik – milliy til madaniyatining elementlari sifatida til birliklari deb ataladigan tushunchalarni milliy qadriyatlar va ushbu madaniyatning milliy xususiyatlari bilan bog'liq holda o'rganish,

Semantik-kognitiv – tilning leksik va grammatik semantikasini tushunchalar mazmuniga kirish vositasi sifatida, ularni til semantikasidan kontsepsiya sohasiga modellashtirish vositasi sifatida o'rganish;

Falsafiy-semiotik – ma'noning kognitiv asoslari o'rganiladi.

Yuqoridagi yo'nalishlarning har biri hozirgi zamon tilshunosligida yetarli darajada izlanishlar olib borilmoqda. Ularning barcahasi o'z uslubiy tamoyillariga ega. Ma'lumki, keyingi yillarda kognitiv tilshunoslar orasida bu sohalarni egallashda bir qator ilmiy yondashuvlar amalga oshirilmoqda.

Biz yuqorida kognitiv lingvistikaning yo'nalishlarini ko'rib o'tgan bo'lsak, endi asosiy bo'limlari bilan tanishamiz.

Kognitiv lingvistika 3 asosiy bo'limga bo'linadi:

Kognitiv semantika; Birinchi navbatda leksik semantika bilan bog'liq;

Kognitiv grammatika; Asosan, sintaksis, morfologiya va tilshunoslikning grammatika bilan bog'liq boshqa sohalari bilan shug'ullanadi;

Kognitiv fonologiya;

Kognitiv lingvistikani qiziqtirgan bilishning aspektlariga quyidagilar kiradi:

Konstruktiv grammatika va kognitiv grammatika;

Kontseptual metafora va kontseptual chalkashlik;

Kontseptual tashkilot; Turkumlash, metonimiya, ramka semantikasi, ikoniklik. Kognitiv tilshunoslik generativ tilshunoslikka qaraganda ko'proq bu sohalarni bir butunga birlashtirishga harakat qiladi. Kognitiv tilshunoslik terminologiyasi hali to'liq o'rnatilmaganligi, bu nisbatan yangi tadqiqot sohasi bo'lganligi, shuningdek, boshqa fanlar bilan aloqalar tufayli qiyinchiliklar yuzaga keladi[8].

- **Xulosa va takliflar.** Kognitiv tilshunoslikning maqsadi dunyoni idrok etish, turkumlashtirish, tasniflash va tushunish jarayonlari qanday amalga oshirilishini, bilimlar qanday to'planishini, qanday tizimlar turli xil faoliyat turlarini axborot bilan ta'minlashini tushunishdir. Aytilganlardan ma'lum bo'lishicha, dunyoni, bizni o'rab turgan muhitni, sodir bo'lgan, bo'layotgan voqea va hodisalarni bilish, idrok etish til faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. «Kognitiv tilshunoslik inson tomonidan til tizimini va ushbu tizimni harakatga keltiruvchi omillarni o'zlashtirishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo'sinda tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Kognitiv - tilshunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o'rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. U (kognitivist) lisoniy va tafakkur faoliyatlari m unosabatlarining yuzaga keltiruvchi sabablarni qidiradi va bu sabablar oqibati bo'lgan muloqat matnlari - lisoniy tuzilmalarni tarkibini va mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi». [2]

Umuman olganda, kognitivizm psixik jarayonlarni boshqaradigan umumiy tamoyillarni o'rganishni birlashtiruvchi fanlar majmuidir. Shunday qilib, til aqliy jarayonlarga kirish vositasi sifatida taqdim etiladi. Insoniyat tajribasi, uning tafakkuri aynan tilda qayd etiladi; til - kognitiv mexanizm, ma'lumotni maxsus kodlash va o'zgartiruvchi belgilar tizimi.

ADABIYOTLAR

1. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor, 2006
2. Irisqulov M. T "Tilshunoslikka kirish" - T., 2009
3. Kevin C. Costley. "Avram Noam Chomsky and His Cognitive Development Theory" June 10, 2013
4. Ozotboyeva Maftunaxon Ravshan kizi. " Kognitiv tilshunoslik: bilish va tafakkur orqali tilni tushunish" Международный научный журнал № 10 (100), часть 2
5. «Новости образования: исследование в XXI веке» май, 2023
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kognitiv_tilshunoslik.
7. Т. Г. Скребцова. "Когнитивная лингвистика" Издательский Дом ЯСК
8. Москва 2018.
9. В. А. Маслова. "Когнитивная лингвистика" Минск Тетра Системс. 2004
10. [ru.wikipedia.org/wiki/ Когнитивная лингвистика](http://ru.wikipedia.org/wiki/Когнитивная_лингвистика).
11. Boltayevna, Ikromova Lola. "USE OF PROVERBS IN THE EDUCATIONAL PROCESS." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 462-466
12. Джураева, М. М. «Лингвокогнитивные и национально-культурные особенности категории модальности во французских и узбекских сказках». Ташкент 233 (2017): 253.
13. Ikromova, Lola. "Tilshunoslikda freym tushunchasining ifodalanishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 3.3 (2021).